

e-mail: info@uzairways.com
tel: +998 (78) 140-46-23
faks: +998 (71) 236-75-00



UZBEKISTAN
AIRWAYS

www.uzairways.com

Aksiyadorlik jamiyati | Joint-Stock Company

20 ____ -y. « ____ » ____ № ____



«TASDIQLAYMAN»

Boshqaruv raisi

«Uzbekistan airways» AJ

Sh.Sh. Xudayqulov

2026-yil « ____ » ____

TEXNIK TOPSHIRIQ

xizmat xonalarini va ularga tutash hududlarni tozalash bo'yicha tanlov uchun
«Uzbekistan airways» AJ Xaridlar departamentining
quyidagi manzil bo'yicha: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani, Uchuvchilar MFY,
Qum-Ariq ko'chasi, 6-uy

1. Ko'rsatiladigan xizmatlarning nomi va maqsadlari

Maxsus texnika va zamonaviy yuvish, tozalash, zararsizlantirish, hidni yo'qotish vositalarini qo'llagan holda xizmat xonalari va sanuzellarni tozalash hamda ozoda saqlash.
Tutash hududni tozalash va ozoda saqlash.

2. Xizmatlar ro'yxati va hajmlari

T/r	Alohida sharoitlarga ega xonalar tavsifi bilan obyekt nomi	Tozalash ishlari ro'yxati	Davriyligi
2.	<p>«Uzbekistan airways» AJ Xaridlar departamentining ma'muriy binosi, manzil: Toshkent sh., Lokomotiv ko'chasi, 13, Aeroport</p> <p>1 qavatli bino – 94 m² (shu jumladan 2 ta sanuzel)</p> <p>Tutash hudud – 5 000 m²</p>	1. Xizmat xonalarini tozalash, chiqindilarni yig'ishtirib olib, konteynerlarga joylash.	Har kuni
		2. Devorlardagi mahalliy ifloslanishlarni tozalash.	Har kuni
		3. Deraza tokchalari, deraza va eshik romlaridagi chang, barmoq izlari va boshqa mahalliy ifloslanishlarni artib tozalash.	Har kuni
		4. Chiqindi chelaklaridagi paketlarni almashtirib, ularni bo'shatish.	Har kuni
		5. Qattiq qoplamali pollarni supurish.	Har kuni
		6. Qattiq qoplamali pollarni qo'lda nam latta bilan artish.	Har kuni
		7. Isitish radiatorlari va yong'in o'chirgichlarni nam latta bilan artish va changdan tozalash.	Har hafta
		8. Plintuslarni nam latta bilan artish va changdan tozalash.	Har kuni
		9. Pissuar va unitazlarning ichki hamda tashqi yuzasini ho'llab tozalash, zang, siydik, suv va ohak toshlarini ketkazish.	Har kuni
		10. Hojatxonalarini yig'ishtirish, sanitariya-texnika jihozlarini bakteritsid vosita bilan yuvish (dezinfeksiya qilish).	Har kuni
		11. Unitazlardagi ohak qatlamini ketkazish.	Har kuni
		12. Eshik romlari va oshiq-moshiqlarini ho'llab artish.	Har kuni
		13. Hojatxonalarini gigiyena vositalari (sovun, hojatxona qog'ozi) bilan ta'minlash.	Har kuni
		14. Binoga tutash hududning tozaligini saqlash.	

3. Xizmat ko'rsatish joyi

Toshkent shahri, Sirg'ali tumani, Uchuvchilar MFY, Qum-Ariq ko'chasi, 6-uy, Aeroport manzilida joylashgan «Uzbekistan airways» AJ Xaridlar departamentining ma'muriy binosi.

4. Xizmat ko'rsatish muddatlari (davrlari)

Shartnoma amal qilishi davomida har kuni.

94 m² (shu jumladan 2 ta hojatxona) + 5000 m² tutash hudud – har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha tozalash va tozalikni saqlash, haftada 5 kun (dushanba-juma).

Xodimlar soni buyurtmachining ehtiyojlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.
5. Yo'ldosh ishlarni bajarish va yo'ldosh xizmatlar ko'rsatishga doir talablar
Zarurat tug'ilganda, xonalar qo'shimcha tezkor tozalanadi.
6. Xizmat ko'rsatishning umumiy talablari va maxsus shartlari
Barcha ishlar malakali xodimlar tomonidan, maxsus texnika, zamonaviy yuvish, tozalash, dezinfektsiyalash va dezodoratsiyalash vositalaridan foydalangan holda sifatli bajarilishi, shuningdek, sanitariya-gigiyena shoxobchalari sifatli gigiyena vositalari bilan ta'minlanishi lozim. Xodimlar sifatli xizmat ko'rsatishlari uchun maxsus kiyim, zamonaviy zarur uskunalar, anjomlar va materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi shart. <u>Maxsus shartlar:</u> Binolarni va ularga tutash hududlarni tozalash bo'yicha xizmatlar Buyurtmachining obyektlarida o'rnatilgan rejim talablariga rioya qilingan holda ko'rsatilishi kerak.
7. Xizmat ko'rsatish xavfsizligi va xizmatlar natijalarining xavfsizligiga doir talablar
Xizmatchi xodimlar xizmat ko'rsatish chog'ida xavfsizlik talablariga rioya qilishlari shart. Polni namlab tozalash vaqtida ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatishlari kerak.
8. Sifatga doir talablar
Tozalash ishlari sifati belgilangan sanitariya me'yorlariga mos kelishi va buyurtmachining ehtiyojlarini qondirishi lozim.
9. To'lov tartibi
To'lov har oy amalga oshiriladi. Ishlarning bajarilgani, qabul qilingani va topshirilganini tasdiqlovchi hujjat bajarilgan ishlar dalolatnomasi hisoblanadi. To'lov tomonlar bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolaganidan so'ng amalga oshiriladi. Xizmatlar narxi 1 kv.m. uchun ko'rsatilishi, umumiy summa esa ilovada keltirilishi lozim. Xizmat ko'rsatishning umumiy muddati kamida 1 yil bo'lib, keyinchalik uzaytirilishi mumkin.
10. Yakuniy qoidalar
Agar tanlov ishtirokchisining fikricha, narx belgilashga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan noaniqliklar mavjud bo'lsa, bu noaniqliklar Buyurtmachi bilan muhokama qilinishi kerak. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan texnik topshiriqni va obyektning sinchkovlik bilan o'rganib chiqadi. Tanlov ishtirokchisi tomonidan izohlar bildirilmagani u olgan texnik topshiriq professional taklif tayyorlash uchun yetarli ekanini hamda umumiy qabul qilingan ish tamoyillariga mos kelishini tasdiqlaydi.

YIFTB boshlig'i

ISHLAB CHIQUILDI:
YIFB boshlig'i



F.D. Mamuritdinov

J.M. Zakirov

Bajaruvchi: YIFB boshlig'i o'rinbosari Aliyeva E.R.

Elnara.Aliyeva@uzairways.com

tel. 78 140-48-22, 28-11

